"Ziji Ko'ragoniy" nazariy qismdan va Samarqand rasadxonasida bajarilgan astronomik kuzatishlar natijalaridan tashkil topgan. Kuzatish natijalari esa yil hisobi, trigonometrik va planetalar harakatlari jadvallari va yulduzlar kataloglaridan iborat.

Ulug'bek ilmiy maktabi asarlarida trigonometric jadvallar ham salmoqli o'rinni egallaydi. "Ulug'bek ziji" dagi trigonometric jadvallar tuzish masalasiga bag'ishlangan bob sinus, sinus-verzus, kosinus shuningdek ular orasidagi umumiy asosiy munosabatlar haqidagi umumiy xarakterdagi mulohazalardan boshlanadi.

"Sinuslar va soyalar(ya'ni tangenslar), - davom etadi Ulug'bek, - bir gradus sinusi yordamida hisoblanadi."...

Ulug'bek o'z zamonasining terminologiyasi qoidalariga binoan biror yoy tangensi va kotangensini hisoblaydi. Buning uchun u avvalo soya haqidagi masalani to'la-to'kis qarab chiqadi. Oldin tomonni, keyin aylana yoyini tadqiq qiladi. Soyaning har xil xossasini bayon etib, Ulug'bek asta-sekin masalani umulashtitadi va soyani trigonometric chiziq sifatida qaray boshlaydi. Birinchi soya deb kotangensini qabul qiladi.

Ulug'bek biron yoy (birinchi) soyasi bilan shu yoy to'ldirish soyasi orasidagi trigonometrik munosabatni tadqiq qiladi. Uning aytishicha: "Bu qoida zamin qilib olindi. Bu asosda soyalar jadvallarini hisoblash aylananing sakkizdan biri uchun jadvallar hisoblashga keltiriladi"

Oxirida Ulug'bek aytadi: "Biz jadvallarda birinchi soyalarni keltirdik. Ular sinuslar kabi 45° dan 90° gacha esa – har besh minut uchun hisoblanadi. Boshqa jadvalda ikkinchi soyalar graduslarda berilgan".

Ulug'bek trigonometric jadvallarning aniqlik darajasini bilish maqsadida ba'zi burchaklar, 20°, 23°, 26° lar sinuslarining qiymatlarini tekshiramiz. Oltmishlik sistemasidan o'nlik sistemasiga o'tib olamiz:

$$\sin 20^\circ = \frac{20}{60} + \frac{3}{60^2} + \frac{16}{60^3} + \frac{21}{60^4} + \frac{3}{60^5};$$

$$\sin 23^\circ = \frac{23}{60} + \frac{26}{60^2} + \frac{37}{60^3} + \frac{55}{60^4} + \frac{26}{60^5};$$

$$\sin 26^\circ = \frac{26}{60} + \frac{18}{60^2} + \frac{8}{60^3} + \frac{10}{60^4} + \frac{4}{60^5} \quad \text{yoki,}$$

$\sin 20^\circ = 0,32020142$, $\sin 23^\circ = 0,390731129$, $\sin 26^\circ = 0,438371147$.

Bu qiymatlarini ularning haqiqiy qiymatlari bilan solishtirib, quyidagi jadvalga ega bo'lamiz:

Ulug'bek hisobiga		Haqiqiy qiymati	
a	$\sin a$	a	$\sin a$
20°	0,32020142	20°	0,32020143
23°	0,390731129	23°	0,390731128
26°	0,438371147	26°	0,438371147

Bu jadval nima demoqchi ekanligi ko'rinib turibdi, u sharhlashga muhtoj emas.

Mavzuni mustahkamlash uchun misollar.

1. $\cos 20^\circ \cos 40^\circ \cos 80^\circ$ ni hisoblang.

Yechish yo'li: Berilgan ko'paytmani quyoidagicha qilib yozamiz:

$$\cos 20^\circ \cos 40^\circ \cos 80^\circ =$$

$$\frac{2 \sin 20^\circ \cos 20^\circ \cos 40^\circ \cos 80^\circ}{2 \sin 20^\circ} = \frac{2 \sin 40^\circ \cos 40^\circ \cos 80^\circ}{2 \cdot 2 \sin 20^\circ} =$$

$$= \frac{2 \sin 80^\circ \cos 80^\circ}{2 \cdot 4 \sin 20^\circ} = \frac{\sin 160^\circ}{8 \sin 20^\circ} = \frac{1}{8}.$$

Binobarin javob: $\frac{1}{8}$

2. $\sin x + \sin 2x + \sin 3x + \dots + \sin nx$ yig'indini hisoblang.

Yechish yo'li: Berilgan yig'indini S bilan belgilab, ikkala tomonini $2 \sin \frac{x}{2} \sin nx$

endi $\sin a \cdot \sin b = \frac{1}{2}(\cos(a-b) - \cos(a+b))$ formula tadbiq qilinsa. Ya'ni

$$\sin \frac{x}{2} S = \cos \frac{x}{2} - \cos \frac{3x}{2} - \frac{5x}{2} + \cos \frac{5x}{2} - \cos \frac{7x}{2} + \dots + \cos \frac{2n-1}{2}x - \cos \frac{2n+1}{2}x = \cos \frac{x}{2} - \cos \frac{2n+1}{2}x$$

Bunda $\cos a - \cos b = 2 \sin \frac{a+b}{2} \sin \frac{b-a}{2}$ formula inobatga olinsa, quyidagi kelib chiqadi

$$2 \sin \frac{x}{2} \cdot S = 2 \sin \frac{(n+1)}{2}x \cdot \sin \frac{n}{2}x \quad \text{yoki} \quad S = \frac{\sin \frac{(n+1)}{2}x \sin \frac{n}{2}x}{\sin \frac{x}{2}}$$

Xulosa.

O'quvchilar matematika faniga o'zlarining katta hissalarini qo'shgan vatandoshlarimiz haqida juda ajoyib ma'lumotlarni berdilar. Darsda qatnashgan o'quvchilar bilimi baholanadi.

Uyga vazifa:

1. $\cos x + \cos 2x + \cos 3x + \dots + \cos nx$ ni hisoblang.
2. Uchburchak tomonlarining uzunliklari $\sin 30^\circ$; $\sin 40^\circ$ va $\sin 60^\circ$ ga teng. Shu uchburchakning turini aniqlang.

Yechish usullari.

1. Berilgan yig'indini S bilan belgilab, ikkala tomonini $2 \sin \frac{x}{2}$ ga ko'paytiramiz.

$$\begin{aligned}
2 \sin \frac{x}{2} \cdot S &= 2 \sin \frac{x}{2} \cdot \cos x + 2 \sin \frac{x}{2} \cos 2x + 2 \sin \frac{x}{2} \cos 3x + \dots + 2 \sin \frac{x}{2} \cos nx = -\sin \frac{x}{2} + \cos \frac{3x}{2} - \\
&- \sin \frac{3x}{2} + \sin \frac{5x}{2} - \sin \frac{5x}{2} + \sin \frac{7x}{2} + \dots - \sin \frac{2n-1}{2}x + \sin \frac{2n-1}{2}x = \sin \frac{2n+1}{2}x - \sin \frac{x}{2} = 2 \sin \frac{n}{2}x \cdot \text{bund} \\
&\cdot \cos \frac{n+1}{2}x \\
&\sin \frac{nx}{2} \cdot \cos \frac{(n+1)x}{2} \\
\text{an } S &= \frac{\sin \frac{nx}{2} \cdot \cos \frac{(n+1)x}{2}}{2 \sin \frac{x}{2}}
\end{aligned}$$

2. Ma'lumki, quyidagi shartlarga asoslanib, tomoni a, b, va c ga teng bo'lgan uchburchakni turini aniqlaydilar.

- a) $a^2 + b^2 > c^2$ bo'lsa, uchburchak o'tkir burchakli
b) $a^2 + b^2 = c^2$ bo'lsa, uchburchak to'g'ri burchakli
c) $a^2 + b^2 < c^2$ bo'lsa, uchburchak o'tmas burchakli bo'ladi. Bizning masalada

$$(\sin 30^\circ)^2 + (\sin 40^\circ)^2 < (\sin 30^\circ)^2 + (\sin 45^\circ)^2 = \left(\frac{1}{2}\right)^2 + \left(\frac{\sqrt{2}}{2}\right)^2 = \frac{1}{4} + \frac{2}{4} = \frac{3}{4} = (\cos 60^\circ)^2$$

Demak, uchburchak o'tmas burchakli ekan.

Mavzu: Trigonometriyadan umulashtiruvchi misollar yechish. Yozma ish.

Takrorlash savollari:

- Asosiy trigonometric funksiyalar va ularning ta'riflarini ayting.
- Asosiy trigonometric ayniyatlarni sanab o'ting.
- Trigonometrik funksiyalar xossalarini ularning grafiklariga qarab tushuntiring.
- Ba'zi burchaklar trigonometric funksiyalari qiymatlarini bir-biringizdan so'rang (har partadagilar o'zaro)
- 5 minutda eng ko'p trigonometric formula yozish (alohida varaqda)

1. Umumlashtiruvchi misollar yechish.

1. Hisoblang: $2 \sin 30^\circ + 3 \cos 60^\circ + \operatorname{tg} 45^\circ$

2. $\sin a = \frac{15}{17}$, $a \in \left(0; \frac{\pi}{2}\right)$ $\cos a$, $\operatorname{tg} a$, $\operatorname{ctg} a$ ni toping.

3. Ayniyatni isbotlang.

$$(\sin a + \cos a)^2 + (\sin a - \cos a)^2 = 2$$

4. Soddashtiring.

$$\sin 200^\circ \cdot \sin 310^\circ + \cos 340^\circ \cdot \cos 50^\circ$$

$$4 \sin a \cdot \cos^3 a - 4 \sin^3 a \cos a$$

5. Ko'paytma shakliga keltiring.

$$\cos 72^\circ + \cos 48^\circ, \frac{\sin 24^\circ + \sin 6^\circ}{\cos 24^\circ + \cos 6^\circ}$$

6. Yig'indi shaklida yozing.

$$4 \sin 35^\circ \cdot \cos 55^\circ \cdot \sin 15^\circ,$$

7. Tenglamalarni yeching.

$$\sin 3x = \frac{\sqrt{3}}{2}, \quad 5 \cos 4x = 2,5,$$

8. Tengsizliklarni yeching.

$$\sin 4x \leq \frac{1}{2}, \quad \operatorname{tg} \left(3x - \frac{p}{4} \right) > 1.$$

9. Trigonometrik funksiyalar hosilasini toping.

$$Y = \sin 5x \quad y = 4\cos 3x \quad y = 2\sin^2 x - \cos^3 x$$

Misollarning yechimi:

$$1. 2\sin 30^\circ + 3\cos 60^\circ + \operatorname{tg} 45^\circ = 2 \cdot 0,5 + 3 \cdot 0,5 + 1 = 3,5$$

$$3. \sin a = \frac{15}{17}, a \in \left(0; \frac{p}{2} \right) \cos a, \operatorname{tga}, \operatorname{ctga} \text{ ni toping.}$$

$$\cos a = \sqrt{1 - \sin^2 a} = \sqrt{1 - \frac{225}{289}} = \frac{8}{17}, \quad \operatorname{tga} = \frac{\sin a}{\cos a} = \frac{15}{8}, \quad \operatorname{ctga} = \frac{1}{\operatorname{tga}} = \frac{8}{15}$$

$$3. (\sin a + \cos a)^2 + (\sin a - \cos a)^2 = 2$$

$$(\sin a + \cos a)^2 + (\sin a - \cos a)^2 = \sin^2 a + 2\sin a \cos a + \cos^2 a + \sin^2 a - 2\sin a \cos a + \cos^2 a = 2$$

4. Soddashtiring.

$$\begin{aligned} \sin 200^\circ \cdot \sin 310^\circ + \cos 340^\circ \cdot \cos 50^\circ &= \sin(180^\circ + 20^\circ) \cdot \sin(360^\circ - 50^\circ) + \\ &+ \cos(360^\circ - 20^\circ) \cdot \cos 50^\circ = \sin 20^\circ \cdot \sin 50^\circ + \cos 20^\circ \cos 50^\circ = \cos(20^\circ - 50^\circ) = \\ &= \cos 30^\circ = \frac{\sqrt{3}}{2} \end{aligned}$$

$$\sin a \cdot \cos^3 a - 4\sin^3 a \cos a = 4\sin a \cos a (\cos^2 a - \sin^2 a) = 2\sin 2a \cdot \cos 2a = \sin 4a$$

$$5. \cos 72^\circ + \cos 48^\circ = 2\cos \frac{72^\circ + 48^\circ}{2} \cdot \cos \frac{72^\circ - 48^\circ}{2} = 2\cos 60^\circ \cdot \cos 12^\circ = \cos 12^\circ$$

$$\frac{\sin 24^\circ + \sin 6^\circ}{\cos 24^\circ + \cos 6^\circ} = \frac{2\sin 15^\circ \cdot \cos 9^\circ}{2\cos 15^\circ \cdot \cos 9^\circ} = \operatorname{tg} 15^\circ$$

$$6. 4\sin 35^\circ \cdot \cos 55^\circ \cdot \sin 15^\circ =$$

$$= 4 \cdot \frac{1}{2} (\sin(35^\circ - 55^\circ) + \sin(35^\circ + 55^\circ)) \cdot \sin 15^\circ$$

$$= 2(-\sin 20^\circ + 1)\sin 15^\circ = -2\sin 20^\circ \cdot \sin 15^\circ + \sin 15^\circ = -2 \cdot \frac{1}{2} (\cos 5^\circ - \cos 35^\circ) + 2\sin 15^\circ =$$

$$= -\cos 5^\circ + \cos 35^\circ + 2\sin 15^\circ$$

$$7. \sin 3x = \frac{\sqrt{3}}{2},$$

$$5\cos 4x = 2,5,$$

$$3x = (-1)^k \frac{p}{3} + pk$$

$$\cos 4x = \frac{1}{2}$$

$$x = (-1)^k \frac{p}{9} + \frac{p}{3} k$$

$$4x = \pm \frac{p}{3} + 2pk$$

$$k \in \mathbb{Z}$$

$$x = \pm \frac{p}{12} + \frac{p}{2} k \quad k \in \mathbb{Z}$$

$$8. \sin 4x \leq \frac{1}{2}$$

$$\operatorname{tg} \left(3x - \frac{p}{4} \right) > 1.$$

$$-p - \frac{p}{6} + 2pk \leq 4x \leq \frac{p}{6} + 2pk$$

$$\frac{p}{4} + pk < 3x - \frac{p}{4} < \frac{p}{2} + pk$$

$$-\frac{7p}{24} + \frac{p}{2} k \leq x \leq \frac{p}{24} + \frac{p}{2} k$$

$$\frac{p}{2} + pk < 3x < \frac{3p}{4} + pk$$

$$k \in \mathbb{Z}$$

$$\frac{p}{6} + \frac{p}{3} k < x < \frac{p}{4} + \frac{p}{3} k$$

$$k \in \mathbb{Z}$$

$$9. Y = \sin 5x \quad Y' = 5\cos 5x$$

$$y = 4\cos 3x \quad Y' = -12\sin 3x$$

$$y = 2\sin^2 x - \cos^3 x \quad Y' = 4\sin x \cos x - 3\cos^2 x(-\sin x) = 2\sin 2x + \frac{3}{2}\sin 2x \cos x$$

5. Yozma ish.

I – qator.

1. Ko'paytma shaklida yozing.

$$\cos 2x + \cos 4x + \cos 6x + \cos 8x$$

2. Yig'indi shaklida yozing.

$$2\sin(x+2)\sin(x-2)$$

3. Tenglamani yeching.

$$\sin^2 x - \sin x = 0$$

4. Tengsizlikni yeching.

$$\cos\left(2x - \frac{p}{3}\right) > \frac{1}{2}$$

2. Hosilani toping va $x = \frac{p}{3}$ da hisoblang.

$$\left(\sin\left(3x - \frac{p}{4}\right)\right) (2\cos 4x)'$$

II – qator.

1. Ko'paytma shaklida yozing.

$$\sin 2x + \sin 4x + \sin 6x + \sin 8x$$

2. Yig'indi shaklida yozing.

$$3\cos(x+2) * \cos(x-2)$$

3. Tenglamani yeching.

$$5\cos^2 x - 3\cos x - 2 = 0$$

4. Tengsizlikni yeching.

$$\sin\left(3x - \frac{p}{4}\right) < \frac{\sqrt{2}}{2}$$

5. Hosilani toping va $x = \frac{p}{4}$ da hisoblang.

$$\left(\cos\left(4x - \frac{p}{3}\right)\right) (3\sin 5x)'$$

3. Xulosa

Qo'ng'iroq chalinishidan 2-3 minut oldin yozma ish daftarlari terib olinadi. Darsda qatnashgan o'quvchilar bilimi baholanadi.

4. Uyga vazifa. O'tgan mavzularni takrorlash.

Taqriz.

Umumlashma darslari texnologik xaritasi to'liq tuzilgan bo'lib, har bir bo'mlim alohida qayt qilingan. Unda darsning maqsadi, uslubi, turi, foydalanilgan adabiyotlar, dars jihozlari ko'rsatilgan.

Mavzuni o'rganish reja asosida bayon qilingan. O'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavxuga zamin tayyorlash bir-biriga bog'langan. Har bir mavzudan keyin mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun test savollari keltirilgan.

Trigonometrik funksiyalar va ularning xossalari izchil bayon etilgan, grafiklar chizib ko'rsatilgan. O'tilgan trigonometric formulalarni takrorlash asosida yig'indini ko'paytmaga va ko'paytmani yig'indiga almashtirish formulalari keltirib chiqarilgan.

Sodda trigonometric tenglama va tengsizliklar o'quvchilarga tushunarli til va uslubda bayon etilgan. Tarixdan ajoyib faktlar va misollar keltirilgan. Bo'lim umumiy takrorlash va yozma ish bilan yakunlangan.

Ushbu darslar umumlashmasi matematikaning trigonometriya bo'limini o'rganishda bevosita DTS da ko'rsatilgan talablarga to'liq javob beradi va undan 2 – kurs talabalari uchun darsda foydalanish mumkin deb hisoblayman.

Fizika – matematika fanlari nomzodi:

Jo'rayev I.

Mavzu: Boshlang'ich funksiya va uning xossalari.

Reja:

1. Boshlang'ich funksiya tushunchasi.
2. Boshlang'ich_funksiyani_topish_qoidalari.
3. Boshlang'ich_funksiyaga_doir_mashqlar.

Mexanikada o'rganilgan nuqtaning to'g'ri chiziqli harakatini qaraymiz. Harakat boshlangandan keyin t vaqt ichida nuqta $S(t)$ yo'l o'tgan bo'lsin. U holda nuqtaning $v(t)$ oniy tezligi $S(t)$ funksiyaning t vaqt bo'yicha hosilasiga teng, ya'ni $v(t) = S'(t)$. Ikkinchi marta differensiallashtirish nuqtaning tezlanishini beradi:

$$v'(t) = S''(t) = a(t).$$

Amaliyotda teskari masala ham uchraydi: nuqtaning $v(t)$ harakat tezligi berilgan, uning bosib o'tgan $S(t)$ yo'lini topish, ya'ni shunday $S(t)$ funksiyaning topish kerakki, uning hosilasi $v(t)$ ga teng bo'lsin. Bunday masalalarni yechish uchun differensiallashtirish amaliga teskari bo'lgan *integrallashtirish* amali ishlatiladi.

Ta'rif. Agar berilgan oraliqdan olingan barcha x lar uchun

$$F'(x) = f(x) \quad (1)$$

tenglik bajarilsa, u holda $F(x)$ funksiya shu oraliqda $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi deyiladi.

1 - misol. $F(x) = \frac{x^3}{3}$ funksiya $(-\infty; +\infty)$ oraliqda

$f(x) = x^2$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasidir, chunki barcha $x \in (-\infty; +\infty)$ lar uchun:

$$F'(x) = \left(\frac{x^3}{3} \right)' = \frac{1}{3} (x^3)' = \frac{1}{3} 3x^2 = x^2 = f(x).$$

Yuqoridagi misoldan ayon bo'ladiki, berilgan funksiya uchun uning boshlang'ich funksiyasini topish masalasi bir qiymatli aniqlanmas ekan. Asosiy masala berilgan funksiya uchun uning barcha boshlang'ich funksiyalarini topishdan iboratdir. Buning uchun boshlang'ich funksiyaning xossalarini bilish zarur.

Lemma (funksiyaning o'zgartnaslik belgisi). Agar biror I oraliqda $F'(x) = 0$ bo'lsa, u holda $F(x)$ funksiya shu oraliqda o'zgarmasdir.

Isbot. I oraliqda biror x_0 nuqtani tanlaylik. U vaqtda shu I oraliqqa tegishli har qanday x son uchun Lagranj teoremasiga ko'ra x va x_0 sonlar orasida yotgan shunday C sonni ko'rsatish mumkinki, $F(x) - F(x_0) = F'(c)(x - x_0)$ bo'ladi. Shartga ko'ra $F'(c) = 0$, chunki $c \in I$ demak,

$$F(x) - F(x_0) = 0.$$

Shunday qilib, I oraliqqa tegishli barcha x lar uchun

$$F(x) = F(x_0),$$

ya'ni $F(x)$ funksiya o'zgarmas doimiy qiymatini saqlaydi.

1-teorema. Agar $F(x)$ funksiya $I = [a; b]$ kesmada $F(x)$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya bo'lsa, u holda $F(x) + C$, $C = \text{const}$ yig'indi ham $[a; b]$ kesmada $F(x)$ uchun boshlang'ich funksiya bo'ladi.

Isbot. $F(x)$ funksiya $F(x)$ funksiya uchun $I = [a; b]$ kesmada boshlang'ich funksiya bo'lgani tufayli $F'(x) = f(x)$ bo'ladi. $F(x) + C$ funksiyani ham differensiallaymiz va quyidagini olamiz:

$$(F(x) + C)' = F'(x) + C' = F'(x) + 0 = f(x) + 0 = f(x).$$

Shunday qilib, bitta funksiya cheksiz ko'p boshlang'ich funksiyalarga ega bo'lar ekan. Boshlang'ich funksiyalar bir-biridan o'zgarmas songa farq qiladi.

2-teorema. $f(x)$ funksiyaning $I = [a; b]$ oraliqdagi har qanday boshlang'ich funksiyasini


$$F(x) + C \quad (2)$$

ko'rinishda yozish mumkin..

Bunda C -ixtiyoriy o'zgarmas son, $F(x)$ esa $f(x)$ funksiyaning $I = [a; b]$ oraliqdagi boshlang'ich funksiyalaridan biri..

Isbot. $F(x)$ va $\Phi(x)$ funksiyalar $f(x)$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyalar bo'lsin. Bunday holda $F'(x) = \Phi'(x) = f(x)$

bo'ladi.



$I = [a; b]$ oraliqdan olingan barcha x lar uchun:

$$(\Phi(x) - F(x))' = \Phi'(x) - F'(x) = f(x) - f(x) = 0.$$

Yuqorida keltirilgan lemmaga ko'ra $\Phi(x) - F(x)$ ayirma $[a; b]$ kesmada o'zgarmas funksiya bo'ladi, ya'ni $\Phi(x) - F(x) = C$ yoki $\Phi(x) = F(x) + C$.

Boshlang'ich funksiyaning asosiy xossasiga geometrik ma'no berish mumkin: $f(x)$ funksiyaning istalgan ikkita boshlang'ich funksiyasining grafiklari bir-biridan Oy o'q bo'ylab parallel ko'chirish natijasida hosil bo'ladi (1-a rasm).

5-misol. $f(x) = x^2$ funksiya uchun grafigi $M(2; 1)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyani toping.

Yechish. $f(x) = x^2$ funksiyaning istalgan boshlang'ich funksiyasi $F(x) = \frac{x^3}{3} + C$

ko'rinishga tga.

$M(2; 1)$ nuqtadan o'tuvchi chiziqni topamiz. Buning uchun M nuqtaning koordinatalarini $y = \frac{x^3}{3} + C$ tenglamaga qo'yib, C ning qiymatini topamiz:

$$y = \frac{x^3}{3} + C \Rightarrow 1 = \frac{8}{3} + C \Rightarrow C = -1\frac{2}{3}.$$

Demak, grafigi M nuqta orqali o'tuvchi boshlang'ich ftnksiya $F(x) + C = \frac{x^3}{3} - 1\frac{2}{3}$ ko'rinishga ega (1-b rasm).

6- m i s o 1. $f(x) = \sin\left(x + \frac{p}{3}\right)$ funksiya uchun grafigi $M\left(\frac{2p}{3}; -1\right)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyani toping.

Y e c h i s h. Berilgan $f(x) = \sin\left(x + \frac{p}{3}\right)$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya $F(x) = -\cos\left(x + \frac{p}{3}\right) + C$

bo'ladi. Grafigi $M\left(\frac{2p}{3}; -1\right)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyani topamiz. Buning uchun $-1 = -\cos$

$\left(\frac{2p}{3}; \frac{p}{3}\right) + C$ tenglamadan C ni topamiz.

$-1 = \cos p + C \Rightarrow -1 = 1 + C \Rightarrow C = -2$. Izlanayotgan boshlang'ich funksiya

$$F(x) = -\cos\left(x + \frac{p}{3}\right) - 2$$

ko'rinishga ega.

V. Mustaqil ishlash (Yangi mavzuga oid topshiriqlar beriladi)

1. Boshlang'ich funksiyaning ta'rifini ayting?

2. Funksiyaning o'zgaruvchanlik belgisi haqidagi lemmani ayting?

3. Misol. $\frac{x^3}{3}, \frac{x^3}{3} + 1, \frac{x^3}{3} - 4$ funksiyalarning hammasi ayni bir $f(x) = x^2$ funksiyaning boshlang'ich funksiyalari bo'lishini isbotlang.

Isbot. 1) $F_1 = \frac{x^3}{3}$ deb belgilaymiz, u holda $F_1'(x) = 3 \cdot \frac{x^2}{3} = x^2 = f(x)$.

2

$$) F_2(x) = \frac{x^3}{3} + 1, F_2' = \left(\frac{x^3}{3} + 1\right)' = \left(\frac{x^3}{3}\right)' + (1)' = x^2 = f(x).$$

3

$$) F_3(x) = \frac{x^3}{3} - 4, F_3' = \left(\frac{x^3}{3} - 4\right)' = x^2 = f(x).$$

VI. Yangi mavzuni mustastahkamlash (yangi mavzuga oid misollar yechish orqali mavzuning asl mohiyati to'liq izoxlanadi) **misollar:**

1-misol. $f(x) = \sin^2 x$ funksiya $x \in R$ da $f(x) = \sin 2x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo'ladi. Chunki barcha $x \in R$ uchun

$$F'(x) = (\sin^2 x)' = 2 \sin x (\sin x)' = 2 \sin x \cos x = \sin 2x = f(x).$$

$F(x) = \sin^2 x + 9$ funksiya ham $x \in R$ da $f(x) = \sin 2x$ uchun boshlang'ich funksiya bo'ladi. Ravshanki, 9 ning o'miga istalgan o'zgarmas sonni qo'yish mumkin. Bundan boshlang'ich funksiyani topish masalasi cheksiz ko'p yechimga ega bo'lishi kelib chiqadi.

2- mi sol. $F(x) = 4x\sqrt{x}$ funksiya $x \in (0; +\infty)$ oraliqda $f(x) = 6\sqrt{x}$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya bo'ladi, chunki barcha $x \in (0; +\infty)$ uchun

$$F'(x) = (4x\sqrt{x})' = 4(x^{\frac{3}{2}})' = 4 \cdot \frac{3}{2} x^{\frac{1}{2}} = 6\sqrt{x} = f(x)$$

Shuningdek, $F(x) = 4x\sqrt{x} + C$ (C — istalgan o'zgarmas haqiqiy son) funksiya ham

$(0; +\infty)$ oraliqda $f(x) = 6\sqrt{x}$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya bo'ladi.

3-mis o 1. $F(x) = \ln|x|$ funksiya $(-\infty; +\infty)$ oraliqda

$f(x) = \frac{1}{x}$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya bo'la olmaydi. Chunki $F'(x) = f(x)$ tenglik $(-\infty; 0)$

oraliqda bajarilmaydi. Ammo $(-\infty; 0)$ va $(0; +\infty)$ intervallarning har

birida $F(x) = \ln|x|$ funksiya $f(x) = \frac{1}{x}$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya bo'ladi.

IX.Xulosa Dars davomida talabalarga berilgan funksiyaning hosilasidan foydalanib boshlang'ich funksiya va uning xossalari, boshlang'ich funksiyaning topish qoidalari tushuntirildi. Boshlang'ich funksiya doir mashqlar bajarildi. Darsda faol yoki passiv qatnashgan o'quvchilar harakati e'tirof etiladi va ballar qo'yilib e'lon qilinadi.

X.Uyga vazifa :

1. Shu bugun o'tilgan mavzuni o'qib, o'rganib kelish.

2. Kelasi yangi mavzu talabalarga uyga o'qib kelishga vazifa qilib beriladi, qaysi adabiyotlardan foydalanish haqida to'liq ko'rsatma beriladi.

3. $F(x)$ funksiya butun son o'qida $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi ekanini ko'rsating.

a) $F(x) = \frac{x^6}{6}, f(x) = x^5.$

b

) $F(x) = \frac{x^5}{5} + 1, f(x) = x^4.$

v) $F(x) = x^3 + 2, f(x) = 3x^2$

g

) $F(x) = \frac{x^4}{4} + 3, f(x) = 2x^3.$

Mavzu Aniqmas integral va uning xossalari.

Reja: 1. Aniqmas integral va uning xossalari.

2. Aniqmas integrallar jadvali.

3. Aniqmas integralni yechish usullari va unga doir misollar.

Ta'rif. Agar biror I oraliqda $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya bo'lsa, u holda

$$\int f(x)dx = F(x) + C \quad (1)$$

ifoda shu oraliqda $f(x)$ funksiyaning **aniqmas integral** deyiladi.

Bunda $f(x)$ integral ostidagi funksiya, $f(x)dx$ integral ostidagi ifoda, x integrallash o'zgaruvchisi deyiladi. C — ixtiyoriy o'zgarmas son yoki integrallash doimiysidir.

Aniqmas integralni topish amali funksiyaning **integrallash** deyiladi. Integrallash differensiallashga teskari amaldir.

Matematikada integral atamasini sheveysariyalik matematik Iogann Bernulli (1667-1748) kiritgan va integral hisobdan birinchi sistematik kurs tayyorlagan. Uning shogirdi Peterbyrgfanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi Leonard Eyler (1707-1783) integrallashni $\int f(x)dx$ belgisi orqali belgilagan.

Hozirgi zamon belgilashlarini esa fransuz matematigi J. Fur'e (1768-1860) kiritgan.

Integrallash qoidasi. Berilgan $f(x)$ funksiyaning aniqmas integralini topish uchun bu funksiyaning boshlang'ich funksiyalaridan birortasini topib, unga ixtiyoriy doimiy C sonni qo'shish kifoya..

Olingan natijaning to'g'riligini tekshirish uchun integrallash natijasining hosilasi integral ostidagi funksiyaga teng bo'lishligini eslash zarur.

Aniqmas integralning xossalari

1-xossa. Aniqmas integraldan olingan hosila integral ostidagi funksiyaga, differensial esa integral ostidagi ifodaga teng bo'ladi:

$$\left(\int f(x)dx \right)' = f(x); \quad d \int f(x)dx = f(x)dx.$$

Bu xossa aniqmas integralning ta'rifidan kelib chiqadi.

2-xossa. Funksiya hosilasining (differensialining) aniqmas integrali bu funksiya bilan ixtiyoriy o'zgarmas sonning yig'indisiga teng:

$\int F'(x)dx = F(x) + C$ yoki $\int dF(x) = F(x) + C$. Haqiqatan, $dF(x) = f(x)dx$ bo'lsin. Bu tenglikning ikkala qismidan integral olamiz: $\int dF(x) = \int f(x)dx$. Ta'rifga ko'ra $\int f(x)dx = F(x) + C$ bo'lgani sababli

$$\int dF(x) = F(x) + C \text{ bo'ladi.}$$

3-xossa. Agar ikkita funksiya yoki ikkita differensial aynan teng bo'lsa, ularning aniqmas integrallari bir-biridan o'zgarmas songa farq qiladi.

Bu xossa bitta funksiya uchun ikkita boshlang'ich funksiya bir-biridan o'zgarmas songa farq qilishidan kelib chiqadi.

4-xossa. O'zgarmas ko'paytuvchini integral belgisi oldiga chiqarish mumkin:

$$\int af(x)dx = a \int f(x)dx, a = \text{const}, a \neq 0.$$

1- misol. $12x^3dx$ ni toping.

2- Yechish.

$$\int 12x^3dx = 12 \int x^3dx = 12 \cdot \frac{x^4}{4} + C = 3x^4 + C.$$

5- x o s s a. Ikki yoki bir qancha uzluksiz funksiyalar algebraik yig'indisining aniqmas integrali qo'shiluvchilar aniqmas integrallarining yig'indisiga teng:

$$\int (f_1(x) + f_2(x) + f_3(x))dx = \int f_1(x)dx + \int f_2(x)dx + \int f_3(x)dx.$$

2- misol. $\int (4x^3 - 18x^2 + 16x - 5)dx$ ni toping.

$$\int (4x^3 - 18x^2 + 16x - 5)dx = \int 4x^3dx - \int 18x^2dx + \int 16xdx - \int 5xdx =$$

$$\begin{aligned} \text{Y e c h i s h .} &= 4 \int x^3dx - 18 \int x^2dx + 16 \int xdx - 5 \int dx = 4 \cdot \frac{x^4}{4} + 18 \cdot \frac{x^3}{3} + 16 \cdot \frac{x^2}{2} - 5x + C = \\ &= x^4 - 6x^3 + 8x^2 - 5x + C \end{aligned}$$

Aniqmas integralning yuqorida ko'rilgan xossalari ko'pgina elementar funksiyalarning integrallarini eng qisqa yo'l bilan topish imkonini beradi.

3- misol $\int \left(\frac{x^{n+1}}{n+1} \right) dx, (n \neq -1)$ ni toping.

Y e c h i s h. 2- xossaga ko'ra $\int F'(x)dx = F(x) + C$. Integral ostidagi funksiyaning hosilasini

$$\text{topamiz:} \left(\frac{x^{n+1}}{n+1} \right)' = \frac{1}{n+1} \cdot (n+1)x^n = x^n \Rightarrow \int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + C, n \neq -1. 4- \text{mi sol.} \int (\sin x)' dx \text{ ni toping.}$$

Y e c h i s h. 2- xossaga ko'ra: $(\sin x)' = \cos x$,

$$\int \cos x dx = \sin x + C.$$

$$\text{Yuqoridagiga o'xshash } \int (\cos x)' dx$$

$= \int (-\sin x) dx = -\cos x + C$ Funktsiyalarni integrallash jarayoni berilgan integral ostidagi funktsiyani turli shakl almashtirishlar yo'li bilan jadvalli integral deb ataluvchi ma'lum integralning integral osti funktsiyasiga keltirishdan iborat.

Barcha jadvalli integrallar differensial hisobning tegishli formulalarini aylantirish yo'li bilan topiladi. Quyidagi jadval jadvalli integralning qaysi yo'l bilan tuzilganini ko'rsatadi.

T.n	Funksiya	Funksiyaning nomi	Funksiya hosilasi	Funksiya differensial	Integral
1	$y = x^n$	Darajali	$\frac{dy}{dx} = x^n$	$dy = x^n dx$	$\int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + C$
2	$y = \ln x$	Logarifmik	$\frac{dy}{dx} = \frac{1}{x}$	$dy = \frac{dx}{x}$	$\int \frac{dx}{x} = \ln x + C$
3	$y = e^x$	Ko'rsatkichli	$\frac{dy}{dx} = e^x$	$dy = e^x dx$	$\int e^x dx = e^x + C$
4	$y = \frac{a^x}{\ln a}$	Ko'rsatkichli	$\frac{dy}{dx} = a^x$	$dy = a^x dx$	$\int a^x dx = \frac{a^x}{\ln a} + C$
5	$y = \sin x$	Trigonometrik	$\frac{dy}{dx} = \cos x$	$dy = \cos x dx$	$\int \cos x dx = \sin x + C$
6	$y = -\cos x$	Trigonometrik	$\frac{dy}{dx} = \sin x$	$Dy = \sin x dx$	$\int \sin x dx = -\cos x + C$
7	$y = \operatorname{tg} x$	Trigonometrik	$\frac{dy}{dx} = \frac{1}{\cos^2 x}$	$dy = \frac{dx}{\cos^2 x}$	$\int \frac{dx}{\cos^2 x} = \operatorname{tg} x + C$
8	$y = -\operatorname{ctg} x$	Trigonometrik	$\frac{dy}{dx} = \frac{1}{\sin^2 x}$	$dy = \frac{dx}{\sin^2 x}$	$\int \frac{dx}{\sin^2 x} = -\operatorname{ctg} x + C$
9	$y = \arcsin x$	Teskari trigonometrik	$\frac{dy}{dx} = \frac{1}{\sqrt{1-x^2}}$	$dy = \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}}$	$\int \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \arcsin x + C$
10	$y = \operatorname{arctg} x$	Teskari trigonometrik	$\frac{dy}{dx} = \frac{1}{1+x^2}$	$dy = \frac{dx}{1+x^2}$	$\int \frac{dx}{1+x^2} = \operatorname{arctg} x + C$

Aniqmas integralni hisoblash usullari

1. Aniqmas integralni uning xossalari vajadvaldan foydalanib hisoblash

1-misol. $\int (\sqrt[3]{x^2} + \sqrt{x}) dx$ ni toping.

$$\int (\sqrt[3]{x^2} + \sqrt{x}) dx = \int (x^{\frac{2}{3}} + x^{\frac{1}{2}}) dx = \int x^{\frac{2}{3}} dx + \int x^{\frac{1}{2}} dx = \frac{x^{\frac{2}{3}+1}}{\frac{2}{3}+1} + \frac{x^{\frac{1}{2}+1}}{\frac{1}{2}+1} + C =$$

Yechish.

$$= \frac{x^{\frac{5}{3}}}{\frac{5}{3}} + \frac{x^{\frac{3}{2}}}{\frac{3}{2}} + C = \frac{3}{5} x^{\frac{5}{3}} + \frac{2}{3} x^{\frac{3}{2}} + C.$$

2. O'zgaruvchini almashtirish usuli Aniqmas integralni hisoblashda o'zgaruvchini almashtirish usuli keng qo'llaniladi. Bizdan $\int f(x) dx$ integralni hisoblash talab qilinsin. $f(x)$ funktsiya uchun boshlang'ich funktsiya mavjud bo'lsa-da, uni to'g'ridan to'g'ri tanlash masalasi hamma vaqt oson bo'lavermaydi. Ba'zan

integral osti ifodasining o'zgaruvchisini almashtirish bilan boshlang'ich funksiyani topish osonlashadi. x o'zgaruvchini $x = j(t)$ funksiya yordamida boshqa t o'zgaruvchiga almashtiraylik. Bu yerdagi $j(t)$ — uzluksiz differensiallanuvchi funksiya,

$dx = y'(t)dt$. Bunday holda

$$\int f(x)dx = \int f(t)j'(t)dt \quad (1)$$

almashtirish formulasiga ega bo'lamiz. O'ng tomondagi integralni hisoblagandan keyin $t = j^{-1}(x)$ almashtirish yordamida eski x o'zgaruvchiga qaytamiz. (1) tenglikning o'rinli ekanligini isbotlash uchun bu tenglikning o'ng va chap tomonida turgan ifodalarning x bo'yicha hosilalarining tengligini ko'rsatish zarurdir. (1) tenglik chap qismining hosilasini topamiz:

$$\left(\int f(x)dx\right)'_x = f(x).$$

tenglikning o'ng qismini murakkab funksiya deb qaraymiz. Bunda t — oraliq o'zgaruvchi. $x = j(t)$ bo'lgani uchun:

$$\frac{dt}{dx} = \frac{1}{j'(t)}$$

(teskari funksiyani differensiallash qoidasiga ko'ra). Natijada quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\left(\int f(j(t))j'(t)dt\right)'_x = \left(\int f(j(t))j'(t)dt\right)'_t \frac{dt}{dx} = f(j(t))j'(t) \cdot \frac{1}{j'(t)} = f(j(t)) = f(x).$$

(1) tenglikning chap va o'ng qismlari hosilalari teng ekanligini ko'rsatdik.. $x = j(t)$ almashtirishni shunday tanlash kerakki, (1) tenglik o'ng qismida turgan aniqmas integralni hisoblash imkoniyatiga ega bo'laylik.

Integralni sodda ko'rinishda ifodalovchi almashtirishlarni topishning umumiy bir qoidasi yo'q. Ba'zi bir xususiy hollarni qaraymiz.

Agar integral ostidagi fiinksiya $f(ax + b)$ ko'rinishga ega bo'lsa, u holda $ax + b = t$ almashtirish kerak.,

1- misol. $\int (3x + 4)^n dx$ ni toping.

Yechish. $3x + 4 = t$ yangi o'zgaruvchini kiritamiz:

$$(3x + 4)'dx = t'dt \Rightarrow 3dx = dt \Rightarrow dx = \frac{1}{3}dt.$$

Integralni topamiz:

Eski o'zgaruvchiga qaytamiz:

$$\int (3x + 4)^{11} dx = \pm (3x + 4)^{12} + C.$$

3. Bo'laklab integrallash usuli

$u=f(x)$ va $v = j(x)$ biror oraliqda uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar bo'lsin. Bunday holda

$$(f(x) \cdot j(x))' = f'(x)j(x) + f(x)j'(x)$$

tenglik o'rinli bo'ladi. Bu tenglikni integrallab, topamiz:

$$\int (f(x) \cdot j(x))' dx = \int f'(x)j(x)dx + \int f(x)j'(x)dx.$$

Bundan:

$$\int f(x) \cdot j'(x)dx = f(x)j(x) - \int f'(x)j(x)dx. \quad (2)$$

$u=f(x)$ va $v = j(x)$ bo'lgani tufayli, $du = f'(x)dx$ va $dv = j'(x)dx$ bo'ladi.

Shuning uchun (2) tenglik quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\int u dv = uv - \int v du. \quad (3)$$

Bu formula *bo'laklab integrallash* formulasi deyiladi. u va v funksiyalarni qulay tanlash bilan $u dv$ ifodaning integralini topish $v du$ ifodaning integralini topishga keltiriladi. (3) formuladan $\int u dv$ integralni hisoblashga nisbatan $\int v du$ integralni hisoblash soddaroq bo'lganda foydalanish mumkin.

1-misol. $\int x \cos x dx$ ni toping.

Yechish. $u = x, dv = \cos x dx$ desak, $du = dx, v = \sin x$ bo'ladi. Demak,

$$\int x \cos x dx = x \sin x - \int \sin x dx = x \sin x + \cos x + C.$$

2-misol $\int x \ln x dx$ ni toping.

Yechish. $u = \ln x, dv = x dx$ desak, $du = \frac{dx}{x}, v = \frac{x^2}{2}$ bo'ladi.

$$\int x \ln x dx = \frac{x^2}{2} \ln x - \int \frac{x^2}{2} \cdot \frac{dx}{x} = \frac{1}{2} x^2 \ln x - \frac{1}{2} \int x dx = \frac{1}{2} x^2 \ln x - \frac{1}{4} x^2 + C$$

3-misol. $\int x e^x dx$ ni toping.

Yechish. $u = x, dv = e^x dx$ desak, $du = dx, v = e^x$ bo'ladi. Demak,
 $\int x e^x dx = x e^x - \int e^x dx + C = x e^x - e^x + C$

VI. Mustaqil ishlash (Yangi mavzuga oid topshiriqlar beriladi)

1-

misol. $\int \frac{\cos 2x}{\cos^2 x \cdot \sin^2 x} dx$ ni toping.

Yechish. $\int \frac{\cos 2x}{\cos^2 x \cdot \sin^2 x} dx = \int \frac{\cos^2 x - \sin^2 x}{\cos^2 x \cdot \sin^2 x} = \int \frac{dx}{\sin^2 x} - \int \frac{dx}{\cos^2 x} = -\operatorname{ctgx} - \operatorname{tgx} + C.$

2-misol. $\int 2^x \cdot 3^{2x} dx$ ni toping.

Yechish. $\int 2^x \cdot 3^{2x} dx = \int 2^x (3^2)^x dx = \int (2 \cdot 9)^x dx = \int 18^x dx = \frac{18^x}{\ln 18} + C.$

3-misol $\int \frac{x^2 dx}{1+x^2}$ ni toping.

$$x^2 dx = d(1+x^3) \frac{1}{3},$$

Yechish. $\int \frac{x^2 dx}{1+x^2} = \frac{1}{3} \int \frac{d(1+x^3)}{1+x^3} = \frac{1}{3} \ln|1+x^3| + C.$

Tekshirish. $\left(\frac{1}{3} \ln|1+x^3| + C \right) = \frac{1}{3} \cdot \frac{3x^2}{1+x^3} = \frac{x^2}{1+x^3}.$

4-misol. $\int \sin 3x \cdot \cos x dx$ ni toping.

Yechish. $\sin 3x \cdot \cos x$ ko'paytmani yig'indiga almashtiramiz. Buning uchun

$$\sin a \cos b = \frac{1}{2} [\sin(a+b) + \sin(a-b)]$$

formuladan foydalanamiz:

$$\sin 3x \cos x = \frac{1}{2} [\sin(3x + x) + \sin(3x - x)] = \frac{1}{2} (\sin 4x + \sin 2x),$$

$$\begin{aligned} \int \sin 3x \cos x dx &= \int \frac{1}{2} (\sin 4x + \sin 2x) dx = \frac{1}{2} \int \sin 4x dx + \frac{1}{2} \int \sin 2x dx = \frac{1}{8} \int \sin 4x d(4x) + \frac{1}{4} \int \sin 2x d(2x) = \\ &= -\frac{1}{8} \cos 4x - \frac{1}{4} \cos 2x + C \end{aligned}$$

VI. Yangi mavzuni mustastahkamlash (yangi mavzuga oid savollarlardan tuzilgan kartatekalar tarqatilib mavzuning asl mohiyati to'liq izoxlanadi) **savollar:**

1 Aniqmas integral deb nimaga aytiladi?

2 Aniqmas integralning xossalarini ayting?

3. 1-misol. $\int \frac{dx}{a^2 + x^2}, (a \neq 0)$ ni toping.

Y e c h i s h. Bu integralni jadvaldagi integrallarning biriga keltirish uchun integral

ostidagi ifodaning surat va maxrajini a^2 ga bo'lamiz:

$$\int \frac{dx}{a^2 + x^2} = \int \frac{\frac{dx}{a^2}}{1 + \left(\frac{x}{a}\right)^2} = \frac{1}{a} \int \frac{d\left(\frac{x}{a}\right)}{1 + \left(\frac{x}{a}\right)^2},$$

$\frac{x}{a} = t$ almashtirish bajaramiz va integralni topamiz:

$$\frac{1}{a} \int \frac{dt}{1+t^2} = \frac{1}{a} \arctg t + C = \frac{1}{a} \arctg \frac{x}{a} + C.$$

2- misol. $\int \frac{dx}{\sqrt{a^2 - x^2}}, (a > 0)$ ni topin.

Y e c h i s h. Berilgan integralni jadvaldagi integrallarning biriga keltirish maqsadida integral ostidagi ifodaning surat va maxrajini a ga bo'lamiz:

$$\int \frac{dx}{\sqrt{a^2 - x^2}} = \int \frac{dx}{\sqrt{a^2 \left(1 - \frac{x^2}{a^2}\right)}} = \int \frac{\frac{1}{a} dx}{\sqrt{1 - \left(\frac{x}{a}\right)^2}} = \int \frac{d\left(\frac{x}{a}\right)}{\sqrt{1 - \left(\frac{x}{a}\right)^2}}$$

$\frac{x}{a} = t$ almashtirish bilan yangi t o'zgaruvchi kiritamiz va integrallashni davom ettiramiz:

$$\int \frac{dt}{\sqrt{1-t^2}} = \arcsin t + C \Leftrightarrow \int \frac{dx}{\sqrt{a^2 - x^2}} = \arcsin \frac{x}{a} + C.$$

3-misol. $\int \frac{xdx}{x^2 + a^2}$ ni toping.

$$\text{Yechish. } \int \frac{xdx}{x^2 + a^2} = \frac{1}{2} \int \frac{d(x^2 + a^2)}{x^2 + a^2} = \frac{1}{2} \ln(x^2 + a^2) + C.$$

Bu misol quyidagi umumiy xulosani chiqarish imkoniyatini beradi: Haqiqatan, almashtirish bajarsak, jadvaldagi integralga kelamiz:

$$t = f(x)$$

$$\int \frac{f'(x)}{f(x)} dx = \int \frac{df(x)}{f(x)} = \ln|f(x)| + C.$$

Haqiqatan, $t=f(x)$ almashtirish bajarsak, jadvaldagi integralga kelamiz:

$$\frac{dt}{t} = \ln|t| + C$$

Ba'zi bir hollarda integral ostidagi ifodaning ko'paytuvchilaridan biri ikkinchisining hosilasiga teng bo'ladi.

4-misol. $\int (x^2 - 5x + 6)^{15} (2x - 5) dx$ ni toping.

Yechish. Bu yerda integral ostidagi ifodaning bir ko'paytuvchisi ikkinchisi (darajaasosining) hosilasidan iborat, ya'ni

$$d(x^2 - 5x + 6) = (x^2 - 5x + 6)' dx = (2x - 5) dx.$$

$x^2 - 5x + 6 = t$ almashtirishni bajaramiz. $(2x - 5) dx = - dt$ bo'ladi va quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\int t^{15} dt = \frac{t^{16}}{16} + C,$$

$$\int (x^2 - 5x + 6)^{15} (2x - 5) dx = \frac{(x^2 - 5x + 6)^{16}}{16} + C.$$

VII. Xulosa .Dars davomida talabalarga aniqmas integral va uning xossalari, aniqmas integrallar jadvali, aniqmas integralni hisoblash usullari tushuntirildi. Mavzuga doir mashqlar bajarildi. Darsda faol yoki passiv qatnashgan o'quvchilar harakati e'tirof etiladi va ballar qo'yilib e'lon qilinadi.

VIII. Uyga vazifa :

1. Shu bugun o'tilgan mavzuni o'qib, o'rganib kelish.

2. Kelasi yangi mavzu talabalarga uyga o'qib kelishga vazifa qilib beriladi, qaysi adabiyotlardan foydalanish haqida to'liq ko'rsatma beriladi.

3. Integralni hisoblang.

a) $\int x^4 dx$

Yechish: $\int x^4 dx = \frac{x^{4+1}}{4+1} + C = \frac{x^5}{5} + C.$

b) $\int \sqrt[3]{x^2} dx$

Yechish: $\int \sqrt[3]{x^2} dx = \int x^{\frac{2}{3}} dx = \frac{x^{\frac{2}{3}+1}}{\frac{2}{3}+1} + C = \frac{x^{\frac{5}{3}}}{\frac{5}{3}} + C = \frac{3}{5} x^{\frac{5}{3}} + C.$

v) $\int \frac{x^2 + x + 5}{2x} dx$

Yechish:
$$\begin{aligned} \int \frac{x^2 + x + 5}{2x} dx &= \int \left(\frac{x^2}{2x} + \frac{x}{2x} + \frac{5}{2x} \right) dx = \frac{1}{2} \int x dx + \frac{1}{2} \int dx + \frac{5}{2} \int \frac{dx}{x} = \\ &= \frac{1}{4} x^2 + \frac{1}{2} x + \frac{5}{2} \ln x + C \end{aligned}$$

Mavzu. Kombinatorika tushinchasi.

O'rinlashtirish va o'rin almashtirish.

I Tashkiliy etab.

1. Navbatchining axboroti.
2. Siyosiy yangiliklardan so'rash.

II. Uyga vazifani so'rash va fikrlashni jamlash.

1. Aniqmas integral formulalarini yozish (qatorlar musaboqasi).

$$1. \int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + C, n \neq -1;$$

$$2. \int a^x dx = \frac{a^x}{\ln a} + C, a > 0, a \neq 1;$$

$$3. \int \frac{1}{x} dx = \ln x + C, x \neq 0;$$

$$4. \int e^x dx = e^x + C;$$

$$5. \int \cos x dx = \sin x + C;$$

$$6. \int \sin x dx = -\cos x + C;$$

$$7. \int \frac{1}{\cos^2 x} dx = \operatorname{tg} x + C;$$

$$8. \int \frac{1}{\sin^2 x} dx = -\operatorname{ctg} x + C;$$

$$9. \int \frac{1}{\sqrt{1-x^2}} dx = \arcsin x + C = -\arccos x + C;$$

$$10. \int \frac{1}{1+x^2} dx = \operatorname{arctg} x + C = -\operatorname{arccot} x + C;$$

Qatorlar orasida o'tkaziladagan savol-javoblar.

1. Integrallash amali nima ?
2. Funksiyaning boshlang'ich funksiyasi nima?
3. Funksiyaning aniqmas integrali deb nimaga aytiladi?
4. Aniqmas integral xossalarini ayting.
5. Aniq integral, Nyuton- Leybnis formulasi

$$\int_a^b f(x) dx = F(b) - F(a)$$

6. Aniq integral xossalarini ayting.

Yangi mavzunig bayoni.

Reja.

1. Kombinatorika tushinchasi.
2. O`rinlashtirish haqida tushincha.
3. O`rin almashtirish haqida tushincha.
4. Misollar yechish.

Tarif: Har qanday narsalardan tuzilgan va bir-biridan shu narsalarning tartibi yoki o`zi bilan farq qiluvchi gruppalar kombinatorika (birlashmalar) deyiladi.

Kombinatorika - matematikaning berilgan ob`ektlardan u yoki bu shartlarni qanoatlantiruvchi nechta kombinasiya tuzish mumkinligini o`rganuvchi bo`limi.

Inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida ob`ektlarini tanlash va ularni ma`lum tartibda joylash bilan shug`ullanishga to`g`ri keladi.

Masalan, konstruktor mexanizmining yangi modelini yaratishda, olim-agranom qishloq xo`jalik ekinlarini bir necha yer maydoniga ekishni planlashtirilganda, kimyogar berilgan atom tarkibli organik molekulalar tuzilishini o`rganganda kombinatorikaga duch keladi.

Kombinatorik masalalar shashka, shaxmat, domino, qarta, shashqol kabi o`yinlar tufayli ham vujudga kelgan.

Kombinatorika faqat XVII asrga kelib, ehtimollar nazariyasi yaralgan davrda fanga aylandi.

XVI - asrda italyan olimlari J. Kardano, N. Tartalya, va G. Galiley ning dastlabgi ishlaridan so`ng aytilgan masalalar bilan fransuz matematiklari B.Paskal va P. Ferma shug`ullandilar.

Kombinatorikani mustaqil fan tarmog`i sifatida birinchi bo`lib G. Leybnis o`rgandi. U 1666 - yilda "Kombinatorika sanati haqida" asarini bostiradi. Unda birinchi bo`lib "kombinatorika" so`zi qo`llaniladi.

Kobinatorika sohasidagi ajoyib yutuqlar L. Eylerga tegishlidir.

1970 - 80 yil da kombinatorika yangi yutiqlarni qo`lga kiritdi. Xususan, EXM yordamida "to`rt bo`yoq muomosi" xal qilindi: Xar bir xaritani umumiy chegarali davlatlardan hech bir jufti bir xil rangda

bo'lmaydigan qilib to'rt rangdagi bo'yoq bilan bo'yash mumkinligi isbotlandi. Kombinatorikani tashkil etadigan narsalar uning elementlari deyiladi. Ularning a, b, c... harflar bilan belgilash mumkin.

$A = \{1, 2, 3\}$ va $\{a, b\}$ to'plamlar elementlaridan juftliklar tuzamiz.

$A \times B = \{(1, a), (1, b), (2, a), (2, b), (3, a), (3, b)\}$

Birinchi o'rinda B elementlari bo'lsa,

$B \times A = \{(a, 1), (a, 2), (a, 3), (b, 1), (b, 2), (b, 3)\}$ to'plam hosil bo'ladi.

$(1, a), (1, b)$ juftliklar tarkibidagi elementlar shu juftlikning komponentalari yoki koordinatalari deyiladi. Shu kabi berilgan A, B, C to'plamlar tartiblangan 3 taliklar, umuman k ta to'plam elementlari k taliklar to'plami tuziladi. Birorta ham komponentada ega bo'lmagan k talik bo'sh k to'liq deyiladi.

1- misol. $A = \{1, 2\}, B = \{a, b, c\}$ to'plamlardan quyidagi 2 taliklar to'plamlarini tuzish mumkin.

$\{(1, a), (1, b), (1, c), (1, a), (2, b), (2, c)\}.$

$\{(a, 1), (a, 2), (b, 1), (b, 2), (c, 1), (c, 2)\}.$

$\{1, 1\}, \{1, 2\}, \{2, 1\}, \{2, 2\}.$

Ko'paytmani topish qoidasi.

Teorema: A va B chekli to'plamlar elementlaridan tuzilgan juftliklar soni shu to'plamlar elementlari sonlarining ko'patmasiga teng.

$$n(A \times B) = n(A) \times n(B)$$

2- masala. 32 har-xil harf va 10 ta turli raqamlardan tarkibida oldin 3 xarf ulardan keyin 2 raqam bo'ladigan nomerlardan qancha tuzish mumkin?

$n(A) = 32, n(B) = 10.$ nomer 5 talik.

$$n(A \times A \times A \times B \times B) = 32 \times 32 \times 32 \times 10 \times 10 = 3276800 \text{ ta.}$$

Kombinatorika 3 xil bo'ladi.

1) O'rinashtirish,

2) O'rin almashtirish,

3) Guruplash.

Ta'rif : m ta elementdan n ($n < m$) tadan o'rinashtirish deb hisunday birlashmalarda aytiladiki, ularning har birida berilgan m ta elementdan n ta element bo'lib, ular bir - birdan elementlari yoki elementlarining tartibi bilan farq qiladi.

$$A_m^n = m(m-1)(m-2)\dots[m-(n-1)]$$

1- misol, 1, 2, 3, raqamlari bilan mumkin bo'lgan barhca 2 xonali sonlarni yozing.

$$\text{Yechihs: } A_3^2 = 3 \times 2 = 6$$

12, 13, 23, 21, 31, 32,

2- misol: Sinfdan o'nta fan o'tiladi, har kuni 5 xil dars o'tiladi, Kunlik dars jadvali nechta turli usul bilan taqsimlash mumkin?

$$\text{Yechihs: } A_{10}^5 = 10 \times 9 \times 8 \times 7 \times 6 = 30240.$$

Tarif: Faqat elementlarning tartibi bilangina farq qiluvchi ($n=m$) o'rinashtirishlar o'rin almashtirish deyiladi.

$$P_m = A_m^n = m \times (m-1) \times \dots \times 2 \times 1 = m!$$

1- Masala, 8 kishini necha xil usulda o'tqazish mumkin?

$$\text{Yechish: } P_8 = 1 \times 2 \times 3 \times 4 \times 5 \times 6 \times 7 \times 8 = 40320.$$

2- Masala, 1, 2, 3, 4, 5 raqamlardan shu raqamlar takrorlanmaydigan qilib nechta 5 xonali son tuzish mumkin?

$$\text{Yechish: } P_5 = 1 \times 2 \times 3 \times 4 \times 5 = 120 \text{ ta.}$$

3- Masala, Har xil qiymatli 9 ta raqam bilan nechta 9 xonali son yozish mumkin?

$$\text{Yechish: } P_9 = 1 \times 2 \times 3 \times 4 \times 5 \times 6 \times 7 \times 8 \times 9 = 362880.$$

Mustaqil ishlash.

Mavzuga doir misollar,

2 ta qatordan ixtiyoriy 2 o'quvchi doskada musobaqa o'tkazadi!

1. A_{10}^3 ; A_6^4 ; A_7^5 ; ni hisoblang.

2. A_{11}^2 ; A_5^4 ; A_8^4 ; ni hisoblang.

1-misolning yechimi:

$$A_{10}^3 = 10 \cdot 9 \cdot 8 = 720;$$

$$A_6^4 = 6 \cdot 5 \cdot 4 \cdot 3 = 360;$$

$$A_7^5 = 7 \cdot 6 \cdot 5 \cdot 4 \cdot 3 = 2520;$$

2-misolning yechimi:

$$A_{11}^2 = 11 \cdot 10 = 110;$$

$$A_5^4 = 5 \cdot 4 \cdot 3 \cdot 2 = 120;$$

$$A_8^4 = 8 \cdot 7 \cdot 6 \cdot 5 = 1680;$$

O'quvchilarga testlar tarqatiladi. (testda bahosi ko'rsatilgan)

$2 \frac{A_5^3 - A_6^2}{A_4^3}$ bu misolni sinf bo'yich uchinchi o'ringacha baholash sharti bilan mustaqil ish qilib beriladi.

$$\frac{A_5^3 - A_6^2}{A_4^3} = \frac{5 \cdot 4 \cdot 3 - 6 \cdot 5}{4 \cdot 3 \cdot 2} = \frac{60 - 30}{24} = \frac{30}{24} = \frac{5}{4}$$

$$3. \frac{P_{20}}{P_4 P_{16}} = \frac{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot \dots \cdot 16 \cdot 17 \cdot 18 \cdot 19 \cdot 20}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot \dots \cdot 15 \cdot 16} = \frac{17 \cdot 18 \cdot 19 \cdot 20}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4} = 17 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 19 = 5845$$

4. $A_q^3 = 56x$ teglamani yeching.

Yechish; $A_x^3 = 56x$

$$X(x-1)(x-2) = 56x \quad \text{Tekshirish.}$$

$$X(x^2 - 3x - 54) = 0 \quad A_9^3 = 9 \cdot 8 \cdot 7 = 504 \quad 56 \cdot 9 = 504$$

$$X^2 - 3x - 54 = 0$$

$$X_1 = 9; \quad x_2 = -6$$

$$J: x = 9$$

Ulgurmovchi o'quvchilar uchun.

$$A_{12}^2 = 12 \cdot 11 = 132$$

$$A_8^5 = 8 \cdot 7 \cdot 6 \cdot 5 \cdot 4 = 6720$$

$$A_{11}^3 = 11 \cdot 10 \cdot 9 = 990$$

Guruhning barcha o'quvchilariga mustaqil ish.

$$1) A_{x+1}^4 = 30A_x^2$$

$$2) A_x^3 + A_{x+1}^2 = A_{x+2}^3$$

Tenglamani yeching.

Mustaqil ish 3-o'ringacha baholanadi,qolgan o'rinlardagi o'quvchilarga savol berib baholanadi.

Vazifa:Adabiyot.R.H.Vafoev "Algebra analiz asjslari"

341-bet 9-misol.

KrossVord

K										
O										
M										
B										
I										
N										
A										
T										
O										
R										
I										
K										
A										

Savollar:

1. Matematik 4 amalning biri;
2. Juft son;
3. Uzunlik o'lchov birligi;
4. Uchburchakning uchidan chiqib qarama-qarshi tomoniga o'tuvchi perpendikulyar kesma;
5. Teorema talab qilmaydigan jumla;
6. Kesmaning bir tomonini davom ettirishdan hosil bo'ladigan geometrik shakl;
7. Isbot talab etmaydigan jumla;
8. Isbot talab etadigan jumla;
9. Ikki xonali son;
10. Diametrning yarmi;
11. Tub son;
12. To'g'ri burchakli uchburchakning aylanishidan hosil bo'lgan geometrik shakl;
13. 360° uzunlikka ega bo'lgan geometrik shakl.